



NON – MILLIY QADRIYATLARIMIZ RAMZI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18328108>

Po'latova Zilola Maxmud qizi

BuxDPI O'zbek tili va adabiyoti magistranti

Buxoro, O'zbekiston

zilolapolotova122@gmail.com

94 913-76-46

Annotatsiya. *Maqolada o'zbek xalqining ma'naviyati, urf-odatlar va ijtimoiy hayotda nonning beqiyos o'rni ochib berilgan. Non o'zbek xalqining milliy tafakkuri, qadriyatlari, diniy e'tiqodi, mehnatsevarligi va mehmondo'stlik kabi fazilatlarining timsolidir. U oddiy oziq-ovqat emas, balki baraka, rizq, sharaf, va poklik ramzidir.*

Kalit so'zlar. *Marosim, qadriyat, sharaf, poklik, mehmondo'st, mehnatsevar, urf-odat, mezon.*

Аннотация. *В статье раскрывается уникальная роль хлеба в духовности, традициях и общественной жизни узбекского народа. Хлеб является символом национальной идеологии, ценностей, религиозных убеждений, трудолюбия и гостеприимства узбекского народа. Это не просто еда, а символ благословения, пропитания, чести, чистоты и жизни.*

Ключевые слова. *Церемония, ценность, честь, чистота, гостеприимство, трудолюбие, традиция, стандарт.*

Abstract. *The article reveals the unique role of bread in the spirituality, traditions and social life of the Uzbek people. Bread is a symbol of the national mentality, values, religious beliefs, hard work and hospitality of the Uzbek people. It is not just food, but a symbol of blessing, sustenance, honor, purity and life.*

Keywords. *Ceremony, value, honor, purity, hospitality, hardworking, tradition, standard.*

Non – bu shunchaki oziq-ovqat emas. U xalqning ma'naviy dunyosi, urf-odatlar, axloqiy mezonlari va dunyoqarashining mujassam ko'rinishidir. O'zbek xalq e'tiqodida non – muqaddas. Uni yerga tashlash, ustidan bosib o'tish, ustiga suv quyish nomaqbul

hisoblangan. Jumladan, o'zbek etnologlaridan biri A. Hayitmetov ta'kidlaganidek: “Non qadimiy e'tiqodlarda samoviy ne'mat sifatida qabul qilinib, u orqali baraka, to'kin-sochinlik va himoya talab qilingan.” [3;64] Shuning uchun ham o'zbeklar



nonni hech qachon izzat-ikromsiz yemaydi.

Non bilan bog'liq bir qancha urf-odat, marosim va e'tiqotlarimiz mavjud:

Non sindirish – to'y va katta marosimlarda, yangi uyga ko'chishda non sindirish odati bor. Bu baraka va baxt ramzi sifatida qabul qilinadi. Yangi hayot boshlanishi, ikki yoshning endilikda birga yashashini, birga non topib yeyishini anglatadi. Birlik va hamjihatlik ramzi sifatida ikki oila endi quda bo'lganini, ular bir nonni bo'lishib yeb, qarindoshlik rishtasini mustahkamlashini ifodalaydi.

Kelin noni – to'yda kelin keltirilganda uning oldiga non qo'yiladi, u undan bir parcha olib yeyishi kerak. Bu uy barakali va to'kin-sochin bo'lishi uchun qilinadi. Ba'zi joylarda kelin nonni peshonasi bilan sindiradi, bu – “uyga itoatli, sabrli bo'lib kirsin” degan ma'noni beradi. Kelin noni urf-odati – o'zbek xalqining ayollarga bo'lgan hurmati, baraka va oilaviy muqaddaslikga e'tibor hamda milliy qadriyatlarni asrab-avaylab kelayotganining yaqqol ifodasidir. Fotiha to'ylarida maxsus tayyorlangan katta tandir non (ba'zida ustiga gullar yoki shirinliklar qo'yiladi) olib kelinadi. Nonni sindirish huquqi ba'zida kuyovning onasi yoki kelinning yaqin qarindoshlariga topshiriladi. Ayrim joylarda kelin va kuyov birgalikda nonni sindirishadi va uni bir-biriga tutib qo'yishadi — bu kelajakda bir-biriga suyanib yashash ramzi hisoblanadi. Non sindirilgach, u yaqin qarindoshlar o'rtasida bo'linadi va yeyiladi — bu ham baraka va totuvlik niyatini bildiradi. Non

sindirishda hududiy farqlar ham mavjud. Farg'ona vodiysida non sindirish ko'proq quda-andalikni mustahkamlashga qaratilgan. Xorazmda esa bu marosimda non ichiga shirinlik (ba'zida pul) qo'yish an'anasi mavjud — bu kelajakka boylik tilagini anglatadi. Qashqadaryo-Surxondaryo hududlarida non sindirish bilan birga “sochilgan yong'oq va shirinlik”ni tarqatish urfga aylangan.

Bolani non bilan sinash – yangi tug'ilgan chaqaloqqa dastlabki mustahkam ovqat sifatida bir bo'lak yumshoq non beriladi. Bu chaqaloqqa kuch-quvvat tilash niyatida qilinadi. Bola tarbiyasi, fe'l-atvori yoki xatti-harakatidagi o'zgarishlarni aniqlash shuningdek bolaning sog'-omon, sog'lom o'sishiga tilak tilash maqsadida amalga oshiriliadigan marosimdir. “Sinash” deganda bu yerda bolaning ichki holatini bilish fe'l-atvori, gapga kirishishi, sog'ligidagi sirli muammolar yoki g'alati xatti-harakatlarining sababini aniqlashga urinishni anglatadi. Odatda bola doimiy yig'lasa, inijlik qilsa, betashvish yurmasa tungi uyqusi bezovta bo'lsa, yoki sababsiz kasallikka chalinaversa “non bilan sinash” odati qo'llaniladi. Odatda bola yaqin qarindosh yoki tajribali ayol (masalan, obi-tobchi yoki buvijon) huzuriga olib boriladi. Ayol Qur'on yoki duo o'qib, non ustida niyat qiladi.

Bola nomidan: “Agar bolasiga nazar, havf, g'ayirlik, ko'z tegish bo'lsa, Alloh panohida bo'lsin, dardlar undan ketsin” degan niyat qilinadi. Non kichik bo'laklarga bo'linib, bolaga yediriladi



yoki atrofdagilarga ulashiladi. Marosimda odatda oq tandir non ishlatiladi. Ayrim hollarda nonni bola onasi o'zi yopadi, bu esa bola uchun maxsus duo va baraka sifatida qabul qilinadi. Ba'zida nonni Qur'on o'qib pishirgan ayollar tayyorlashi ham qabul qilingan. Marosimdan keyin bola tinchlanib, fe'l-atvori yaxshi tomonga o'zgarsa, bu sinashning foydasi tekkan deb qabul qilinadi.

Non tashlash – o'zbek xalqining qadimiy urf-odatlardan biri bo'lib, u ko'proq sirli, ishonchga asoslangan xalq e'tiqotlari bilan bog'liq. Ayrim hududlarda yomg'ir chaqirish marosimlarida non va suv ko'chaga tashlanadi. Bu yerga va tabiatga hurmat ifodasidir. Kasal odam tuzalishi, g'am-anduh ketishi, yo'ldan kelgan xatarning daf bo'lishi kabi holatlarda ham amalga oshiriladi. Hozirgi kunda diniy va ekologik nuqtayi nazardan nonni tashlash noo'rin deb qaraladi. Ba'zilar bunga bid'at yoki nojoiz urf sifatida qaraydi. Shunga qaramay uning ijtimoiy-psixologik ildizlari xalq ongidagi umid, duo, ishonch bilan bog'liqligi e'tiborga loyiq.

Non bilan qasam ichish – juda jiddiy va rost gapirayotganini bildirish uchun non ustiga qasam ichiladi. Bulardan tashqari nikohda “non sindirish”, to'yda “non yopish”, chaqaloqqa “nonli chaqaloq” degan atamalar ham ishlatiladi. Bu haqida folklorshunos S. Raxmonov yozadi: “O'zbek marosimlarida non ishtiroki – qadimiy zardushtiy va islomiy tasavvurlarning sintezidan hosil bo'lgan

ramziy aktdir”. [3;112] Bu holat nonni faqat oziq emas, balki ijtimoiy aloqalar va axloqiy qadriyatlar timsoli sifatida ko'rsatadi.

Non ustiga duo qilish – non yopilganda yoki dasturxonga qo'yilganda, avval duo o'qiladi. Bu hurmat va baraka tilashni bildiradi. O'zbek xalqining azaliy e'tiqodi, islomiy qadriyatlari va hayot falsafasi bilan uzviy bog'langan muhim urf-odatlardan biridir.

Non ustida duo qilish turli holatlarda amalga oshiriladi:

a) To'y va fотиha marosimlarida: Quda-andalik bo'lish yoki ikki yoshning nikohiga rozilik bildiruvchi “fотиha non” uzatilganda, undan avval kattalar duo qiladilar. Duoda: ikki yoshga baxt, baraka, uzoq umr, sog'lik va muhabbat tilanadi.

b) Safarga chiqish oldidan: “Duoyi safar non” deb ataladigan non uzatiladi. Safarga ketayotgan inson uchun xatarsiz yo'l, sog'-salomatlik, omad tilab duo qilinadi. “Yo'ling ochiq bo'lsin”, “Noning butun, yuzing yorug' bo'lsin”, “Non bilan bor, non bilan qayt”, degan duoyi tilaklar aytiladi. Odamlar ishonishadiki: non bilan yo'lga chiqsa, Ollohning panohida bo'ladi yo'lida g'am-tashvish bo'lmaydi, och qolmaydi, xavfsiz bo'ladi. Non berish orqali yo'ldoshga “seni duo bilan qo'llab turamiz” degan ma'no yotadi.

c) Aza va xotira marosimlarida: Islomiy duolar bilan non tarqatiladi — bu marhumning ruhiga bag'ishlanadi. Qur'on tilovatidan so'ng non ustida duo



qilinadi, marhumning gunohlari mag‘firat qilinishi so‘raladi.

d) Yangi ish boshlashda yoki muhim qaror oldidan: Ba‘zida yangi ish boshlash oldidan yoki muhim qarorlar qabul qilinadi ekan, oila a‘zolari yoki oqsoqollar duoli non uzatadilar.

Nonga hurmat – non yerga tushib ketsa, olib o‘pib yuqori joyga qo‘yish odati bor. Bu nonni muqaddas bilishdan kelib chiqqan. Islomda non eng muhim rizq hisoblanadi. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) nonni hurmat qilishga chaqirganlar “Nonni qadrlanglar, chunki

u yer va osmon barakasi bilan yaratilgan”, degan hadis mavjud.

Non — o‘zbek xalqining milliy tafakkuri va madaniyatida chuqur ildiz otgan qadriyat. U tilimizda, adabiyotimizda, marosimlarimizda, hatto kundalik xatti-harakatlarimizda muqaddaslik timsolidir. Non tushunchasi orqali xalq o‘z hayotiy tajribasini, e‘tiqodini, axloqiy qarashlarini avloddan-avlodga o‘tkazadi. Shu sababli ham nonni qadrlash — milliy o‘zligimizni asrash demakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Кошғарий М. Девону луғотит – турк (Туркий сўзлар девони). Нашрга тайёрловчи Қ. Содиқов. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. –482 б.
2. Normatov S., “Semantik maydonlar nazariyasi”, T.: O‘zbekiston, 2010, 78-bet
3. Raxmonov S., “O‘zbek marosimlarining ildizlari”, T.: Akademnashr, 2015, 112-bet.
4. Хайитметов А., Ўзбек халқининг этнографик қарашлари, Т.: Фан, 1982, 64-бет.